

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYA TIZIMI VA IQTISODIYOT TARMOQLARINI  
RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

Akramova Aziza Abduvohidovna

TDIU talabasi

Email: azizaakramova272@gmail.com

**Annotasiya**

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya tizimi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bosqichlari yoritib berilgan. Moliya tizimini raqamlashtirish masalariga ham alohida etibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, moliya tizimi, moliyaviy resurslar, moliyaviy aktivlar, moliya mexanizmi, iqtisodiyotning real sektori, moliya institutlari.

**Kirish**

Moliya tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosidir. Moliya sektorini raqamlashtirish ham davlat, ham tijorat tashkilotlarining moliyaviy resurslarini boshqarish shaffofligini ta'minlaydi. Asosiy vazifasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish bo'lgan davlat siyosatining muvaffaqiyati moliyaviy resurslar qanday shakllantirilishi, taqsimlanishi va ishlatalishiga, iqtisodiyotning real sektorini, fan, ta'lif va madaniyat moliyalashtirish mexanizmi qanchalik samarali ekanligiga bog'liq bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdag'i ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraufdanding va boshqa turdag'i sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

**Asosiy qism**

Moliya tizimi — iqtisodiyot pul sektorining bir qismi, moliya amaliyoti. Moliya tizimi faqat moliya munosabatlarni emas, balki moliyaga taalluqli siyosiy, tashkiliy munosabatlarni ham qamrab oladi. Bu tizim tarkibiga quyidagilar kiradi:

Moliya obyektini hosil etuvchi pul fondlari yoki moliya resurslari;

Korxonalar, xonadonlar, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlaridan iborat moliya munosabatlarining subyektlari — ishtirokchilari;

Moliya mexanizmi, ya'ni moliya munosabatlarida qo'llaniladigan va pul bilan bog'liq vositalar (foyda, zarar, rentabellik, likvidlik, byudjet, byudjetdan tashkari fondlar, subsidiya, subvensiya, dotatsiya, sanatsiya, moliya normativlari, moliyaviy sanksiya va boshqalar);

Moliya institatlari va davlatning moliya idoralari (moliya kompaniyalari, moliya jamg'armalari, moliya vazirligi, uning mahalliy bo'lilmalari, soliq idoralari, g'aznachilik xizmati, soliq politsiyasi va boshqalar);

Moliya bozori — fond bozori, sug'urta xizmati bozori, valyuta bozori;

Moliya siyosati — iqtisodiyot subyektlarining moliyaga oid yo'l-yo'riqlari va xatti-harakati.

### 1-rasm Moliya tizimining asosiy tarkibi

Iqtisodiy jarayonlarning jadal suratlarda rivojlanishi ko'p jihatdan moliya sohasiga bog'liqdir. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarida pul asosiy vosita sifatida qatnashadi. Moliya iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri desak adashmaymiz, chunki uning vositasida muayyan maqsadga yo'naltirilgan pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyat ehtiyojlarini gondirish maqsadida taqsimlanadi. Moliya tizimi jismoniy shaxslar (shaxsiy moliya), hukumatlar (davlat moliyasi) va korxonalar (korporativ moliya) o'rtasida sodir bo'ladigan kapital oqimlaridan iborat. Zamonaviy moliya tizimlarida pul, kredit va moliya ayriboshlash vositalari sifatida ishlatiladi. Moliyaviy aktivlar - moliyaviy bozorlarda sotiladigan mahsulotlar moliyaviy aktivlar deb ataladi Naqd pul, aksiyalar, obligatsiyalar, investitsion fondlar va bank depozitlari moliyaviy aktivlarga misoldir. Yer, mulk, tovarlar yoki boshga moddiy aktivlardan farqli o'laroq, moliyaviy aktivlar o'ziga xos jismoniy qiymatga yoki jismoniy shaklga ega bo'lishi shart emas. Aksincha, ularning qiymati ular savdo qiladigan bozordagi talab va taklif omillari, shuningdek, ularning risklilik darajasi bilan o'chanadi.

Moliya institutlari - moliya institutlari investorlar va qarz oluvchilar o'rtasida vositachi vazifasini bajaradilar. Ular a'zolar va mijozlar uchun moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. U moliyaviy vositachilar deb ham ataladi, chunki ular omonatchilar va qarz oluvchilar o'rtasida vositachi vazifasini bajaradilar. Investorning jamg'armalari to'gridan-to'g'ri yoki bilvosita moliya bozorlari orqali safarbar qilinadi. Ular bozorlardan mablag' to'plashni va moliyaviy aktivlarga (depozitlar, qimmatli qog'ozlar, kreditlar va boshqalar)ga yo'naltirishni xohlaydigan tashkilotlarga xizmatlarni taklif qildilar.

Moliyaviy xizmatlar - aktivlari boshqarish va majburiyatlarni boshqarish tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar. Ular kerakli mablag'larni olishga yordam beradi, shuningdek, ular orqali iqtisodiy subyektlar samarali investitsiya qilinganligiga ishonch hosil qilishadi(masalan, bank xizmatlari, sug'urta xizmatlari va investitsiya xizmatlari).

Moliya tizimi darajasiga qarab ko'plab tarkibiy qismlardan iborat. Kompaniya nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, moliya tizimi kompaniyaning moliyaviy

faoliyatiga mos keladigan protseduralarni o'z ichiga oladi.Bularga misol qilib, moliya, buxgalteriya hisobi, daromadlar, xarajatlar, ish hagi va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Mintaqaviy nuqtai nazardan, moliya tizimi qarz oluvchilar va

qarz beruvchilar o'rtasida mablag'larning almashinuvini osonlashtiradi. Mintaqaviy darajadagi moliya tizimiga banklar va hisob-kitob markazlari va shunga o'xshash boshqa moliyaviy institutlar kiradi. Global miqyosda moliya tizimi moliya institutlari, investorlar, markaziy banklar, Davlat organlari, Juhon banki va boshqalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Ta'kidlash joizki, raqamlashtirish davlat xizmatlarini ko'rsatishdan tortib, yangi mahsulotlar yaratishgacha bo'lgan turli jarayonlarga faol kirib bormoqda. Bu yangi biznesmodellarining rivojlanishiga, qiymat zanjirlarining o'zgarishiga, mahsulotlarni yetkazib berishning yangi kanallariga, moliyaviy sektordagi kompaniyalar o'rtasidagi munosabatlarga va ushbu yo'nalishdagi tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tashkilotlarga iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash, vaqt va resurslarni tejash, biznes-jarayonlarni samarali yo'lga qo'yish orqali, kompaniya ichida hujjat aylanishidan tortib, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni maksimal darajada yaxshilash imkonini beradi. Shubhasiz, raqamli iqtisodiyot mahsulotni yaratishda ham, uni potentsial xaridorga taqdim etishda ham yangi imkoniyatlar ochadi. Raqamlashtirilgan auditning muhim afzalligi shundaki, u biznes va tavakkalchilikning yanada shaffofligini ta'minlaydi. Xususan, ma'lumotlar tahlili orqali auditorlar moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning ma'lumotlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin bo'ladi. Bu ularga rahbarlarga murakkabroq savollar berish imkonini yaratish orqali auditni tekshirilayotgan shaxs va uning barcha manfaatdor tomonlari uchun qiymatliroq qiladi. Auditning bu evolyutsiyasi moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalarga foya keltirishi aniq. Auditorlar katta hajmdagi ma'lumotlar namunalarini tahlil qilish uchun texnologik vositalardan foydalangan holda, moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyaning ichki jarayonlarini yaxshiroq tushunishlari, professional skeptitsizmni konstruktiv tarzda qo'llashlari va yanada samaraliroq audit strategiyasini ishlab chiqish uchun xavfni yaxshiroq baholashlari mumkin bo'ladi. Moliyaviy xizmatlar sektori katta raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Yangi texnologiyalar moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalarning ishslash usullarini va ularning auditlarini boshqarish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Moliyaviy

texnologiyalar bozorini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi asosiy omil internet va raqamlashtirishni rivojlantirishdir.

### **Xulosa**

Kredit berish ko'pincha bilvosita, bank kabi moliyaviy vositachi orqali yoki obligatsiyalar bozorida notalar yoki obligatsiyalar (korporativ obligatsiyalar, davlat obligatsiyalari yoki o'zaro obligatsiyalar) sotib olish orqali amalga oshiriladi. Qarz beruvchi foiz oladi, qarz oluvchi foiz to'laydi va moliyaviy vositachi kreditni tashkil

qilish uchun farqni oladi. Bank ko'plab qarz oluvchilar va kreditorlarning faoliyatini jamlaydi. Bank kreditorlardan depozitlarni qabul qiladi, ular bo'yicha foizlar to'laydi. Keyin bank bu depozitlari qarz oluvchilarga beradi. Banklar turli o'lchamdagи qarz oluvchilar va kreditorlarga o'z faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. "Moliya". Darslik. "NOSHIR" nashriyoti,2012
2. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik. Barkamol fayz media",2017
3. Кемпбел Д. Стратегический менеджмент. - Москва, Инфра-М, 2003 г
4. Malikov T.S. "Moliya". O'quv qo'llanma. "IQTISOD-MOLIYA",2018
5. Thomas F.Cargill,"The financial system, financial regulation and central bank policy", Cambridge university press,2017
6. Kenneth R.Szulkzyk,"Money,banking, and international finance",2010 Thomas D.Simpson, Financial markets,banking, and monetary policy,2014